



OILA – MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYA O‘CHOG‘I

Yakubova Zilola Zikirovna

Nizomiy nomidagi TDPU “Maktabgacha talim metodikasi” o‘qituvchisi
zilolayakubova1979@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar keskinlashishi. Oilada shaxsni ma’naviy-axloqiy shakllantirishi va oilaviy munosabatlar xarakteri, ota-onalarning namunasi, ulardagi umumta’lim darajasi, umummadaniy saviyasi hamda umumpedagogik madaniyati va oilaviy hayotini qanday tashkil etishdan iborat ekanligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: bolalar, ta’lim, ma’naviy-axloqiy tarbiya, tarbiya usullari, ijodiy barkamollikka erishish, axloqiy tarbiya, estetik hislar, umumpedagogik madaniyati, psixologik vazifalar, pedagogik faoliyat.

Annotation: In this article, the relationship between parents and children is strained. The spiritual and moral formation of a person in the family and the nature of family relations, the example of parents, their level of general education, general cultural level and general pedagogical culture and how to organize family life were discussed.

Key words: children, education, spiritual and moral education, methods of education, achieving creative perfection, moral education, aesthetic feelings, general pedagogical culture, psychological tasks, pedagogical activity.

Oila shaxs tarbiyalashda birinchi darajali ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy institut bo‘lib, aynan oilada bola xarakteri asoslari, rivojlanishi poydevori qo‘yiladi, axloqiy norma va xulq – atvor ko‘nikmalari, individual qobiliyatlar, shaxsiy, kasbiy va bilishga qiziqishlar quvvat oladi. Oila omili insonga butun hayoti davomida ta’sir o‘tkazadi. Ijtimoiy nuqtai nazardan, oila inson turli ijtimoiy rollarni egallaydigan jamoadir. Oila insonning o‘z-o‘zini ifodalashi, ijtimoiy-ijodiy faolligiga ko‘maklashadi.

Keyingi vaqtlarda O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, madaniy sohalarda mazmunan boy ishlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi negizida inson, mamlakatimiz fuqarolari va yoshlarning huquq-manfaatlarini har tomonlama muhofaza qilish yotadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning “Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz



yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi”¹, degan ta’kidi, yurtimizda yoshlar tarbiyasiga, ayniqsa, oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilishga alohida e’tibor berilayotganining dalolatidir.

Bugungi kunda mamlakatimizda oila masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani bejiz emas, albatta. Zero, yurt taraqqiyotining tamal toshi jamiyatimizning asosiy bo‘g‘ini bo‘lmish oilada qo‘yiladi. Oila shunday muqaddas makonki, unda hayotning davomiyligini ta’minlovchi shaxs shakllanadi, etnik madaniyat, urf-odatlarimiz, axloqiy va ma’naviy qadriyatlarimiz saqlanadi, rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi iqtisodiy va madaniy hayot poydevori mustahkamlanadi.

Oilaning asosiy ijtimoiy, ma’naviy, axloqiy va psixologik vazifalarini qisqacha tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, bolada shakllanadigan barcha hissiy, ruhiy tuyg‘ular: mehribonlik, oqibatlilik, o‘ziga va atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatlilik kurtaklari oilada namoyon bo‘ladi. Oila o‘z vazifasini lozim darajada amalga oshirishi uchun uni tegishlicha, ma’rifiy-metodik qurollantirish, ijtimoiy-ma’naviy tadbirlarni o‘tkazish yo‘li bilan unga yordam berib borish zarur.

Qolaversa, ma’naviy yetuk oila – ma’naviy yuksak jamiyat tayanchidir. Oila urf-odatleri, shajarasi, an’analari, axloqiy-ma’naviy qadriyatlarni farzandlar ongiga singdirish, har bir kishini kasb-hunar malakalari bilan qurollantirish ma’naviy barkamollikni tarbiyalashning asosidir. Shunday ekan, joylardagi xotin-qizlar, yoshlar tashkilotlari, mahallalarda faoliyat yuritayotgan oqsoqollar kengashlari oldida turgan muhim vazifalardan biri oila qadriyatlariga bag‘ishlangan suhbatlar, konferensiyalar, munozaralar, uchrashuvlar, oilaviy bayramlar, kitobxonliklar, san’at asarlari ko‘rgazmalari, qo‘shiq va raqslar ko‘rik-tanlovlari o‘tkazish, oilaviy folklore etnografik ansambllarni tashkil etish, tarixiy joylarga sayohatlar uyushtirish maqsadga muvofiqdir.

Milliy, ma’naviy qadriyatlarning, milliy tarbiya usullarining ahamiyatini kamsitmagan holda har qanday ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ham tarbiya sof milliy mezonlar doirasida qolib ketishi mumkin emas. Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida tarbiyaning mazmuni va yo‘nalishi milliy va umuminsoniy qadriyatlar

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Камолот» ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойидаги нутқи. 1 июль, 2017 й.



uyg'unligi bilan belgilanadi. Bu nazariy qoida bugungi kunda ijtimoiy tarbiyaga ham, oilaviy tarbiyaga ham bevosita taalluqlidir.

Yangi ijtimoiy-tarixiy sharoit oila, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiya borasida ham jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bolalarni vatanparvarlik ruhida, yangicha fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash oiladan boshlanishini e'tiborga olib, oilaviy tarbiya mazmunini qayta ko'rib chiqish va uni yanada boyitish, uning asosiy yo'nalishlarini belgilash va shu asnoda maqsad va vazifalarni hamda ularni qanday vositalar bilan amalga oshirish yo'llarini aniqlash muhim ijtimoiy-pedagogik va ijtimoiy-psixologik zaruriyatdir.

Ana shu zaruriyatdan kelib chiqqan holda, oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish masalasi ijtimoiy-siyosiy va ma'daniy-ma'rifiy ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, mazkur Oilaviy tarbiya saboqlari masalalarni hal etish ancha murakkab va ziddiyatli bo'lib, unga vorisiylik va tarixiylik nuqtai nazaridan yondashish talab etiladi.

Ma'lumki, mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi yangi bosqichi oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlardan foydalanishning zamonaviy mezonlarini o'rta tashlamoqda. Bu mezonlar vatanparvarlik, milliy g'urur, milliy ong, milliy o'z-o'zini anglash, milliy tafakkur, milliy tarbiya kabi tushunchalarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ular tarbiya jarayonining bugungi kunda rivojlanishi uchun muayyan tarzdagi bir maqsadga qaratilganini ta'minlaydi.

Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mavzusiga to'xtalganda, milliy axloq va tarbiyaning o'ziga xos xususiyatini ochib bermoq zarur. Milliy axloq va tarbiyada ajdodlarimizning tarixiy tajribalari, davrlar sinovidan o'tgan hayot saboqlari va o'git, ko'rsatmalari jamuljamdir. Ana shu tufayli milliy, axloqiy qadriyatlarimiz asrlar osha yashab kelmoqda.

Har qanday axloqiy fazilat u yoki bu yo'sinda insonning xatti-harakati tartibga solinishining ifodasi bo'lib, insonga bo'lgan hurmat-e'tibor, mehr-muhabbatni bildirar ekan, u umumbashariy mazmunni beradi. Zotan, har qanday shaxs odamzotning bir zarrasi ekan, unda butun bashariyatning mohiyati mujassam, shuning uchun ham u butun insoniyatga mansubdir. Shunga ko'ra, har bir ota-ona o'z farzandi tarbiyasida, uning barkamol shaxs bo'lishida umuminsoniy ma'no va mazmunni ko'rmog'i lozim. Bolaning axloqiy fazilatlari umuminsoniy xarakter kasb etib, umumbashariy qadriyatga aylanishini anglab yetgan ota-ona farzandlari tarbiyasidagi mas'uliyatni chuqur his qilmoqlari maqsadga muvofiqdir.

Oilada shaxsni ma'naviy-axloqiy shakllantirish bolaning tug'ilishi bilan boshlanadi va u oilaviy munosabatlar xarakteri, ota-onalarning namunasi, ulardagi



umumta'lim darajasi, umummadaniy saviyasi hamda umumpedagogik madaniyati va oilaviy hayotini qanday tashkil etishdan iborat. Bu omillar oilada bolani ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini tashkil etadi va ular bir qator pedagogik-psixologik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Bularni hisobga olish esa bolani ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy axloqiy qadriyatlardan foydalanishning o'ziga xosligi va ahamiyatini bilishga yordam beradi. Inson butun mavjudotlar ichida eng ulug'i, barcha narsalar uning uchun yaratilgan, degan g'oya islomiy ma'naviyatning negizini tashkil qilsa, insonlarni o'zaro ma'naviy, oqibatli bo'lishga undash va ularda oliyanob fazilatlarni shakllantirish islom pedagogikasi va psixologiyasining asosidir. Islom dini xalqning ijtimoiy hayotiga, xususan, oilaviy munosabatlariga, madaniyati va milliy an'analariga singib ketgan, ammo bundan o'zbek xalqining qadimiy, takrorlanmas madaniyati, jumladan, oilaviy qadriyatlari islom dinisiz mavjud bo'lmas edi, degan qarash kelib chiqmaydi. Islomiy ma'naviyat manbalarida oila, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiyaga oid qarashlar tizimi mavjud bo'lib, u oilaning shakllanishi, rivojlanishi va mustahkamlanishiga qaratilgan barcha jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu qarashlar ilohiyot nuqtai nazaridan o'rtaga tashlansa-da, ular kishilarning hayotiy faoliyatlari, turmush tarzlari, ijtimoiy ehtiyojlari, nihoyat oilaviy munosabatlari talabidan kelib chiqqanligi uchun ham aqlga va kundalik turmushga muvofiq edi.

Islomda oilaviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib o'tiladi. Bu xususiyatlar musulmonchilik talabidan kelib chiqqan, bolani axloqiy tarbiyalash haqidagi umumiy g'oyalar bilan bog'liq bo'lib, ular bolani insoniylikka va ezgulikka da'vat etganligi uchun umuminsoniy mazmunga egadir. Bugungi kunda ota-onalar islomiy ma'naviyatning ana shu umuminsoniy mazmunini bolalar shuuriga singdirib borishlari zarur.

Diniy qadriyatlarning yangi tarixiy sharoitda oiladagi ma'naviy-axloqiy tarbiyadagi muhim omil bo'lib xizmat qilishi shu bilan izohlanadiki, diniy tasavvurlar, rasm-rusumlarning millat turmush tarziga, xalqning hayotiy faoliyatiga singib ketishiga sabab diniy ongning inson ruhiyatiga bo'lgan kuchli ta'siri oqibatidir. Ayni vaqtda, oilaviy tarbiya jarayonida diniy qadriyatlar bilan diniy bid'atni farqlash va bola ongini diniy xurofotlar bilan zaharlanishining oldini olish ota-onalarning burchi hisoblanadi.

Ma'lumki, Sharq mutafakkirlari merosida ta'lim-tarbiya, xususan, oilaviy tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan. Ular bolalarni tarbiyalashni jamiyat taqdirini, millatning kelajagini belgilaydigan asosiy mezon deb hisoblaganlar. Ularning pedagogik qarashlari zahirida ijtimoiy ideal sifatida komil inson g'oyasi



yotadi. Ular tarbiyada ijtimoiy va biologik tomonlarning o‘zaro munosabati haqida to‘xtalib, tarbiyada irsiyat va muhit ta’siri birdek ekanligi, tan va ruh sog‘lomligining birligi kabi masalalarni o‘rtaga tashlaydilar. Ularning aqliy, mehnat, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyaning birligi hamda ularni amalga oshirish yo‘llari haqidagi va oilada bolalar tarbiyasi haqidagi fikrlari mazkur muammolarning ko‘pgina jihatlarini qamrab oladi va ular muayyan tarbiyashunoslik bo‘yicha qarashlar tizimini tashkil etadi. Bu qarashlar o‘z davrlaridan anchagina ilgari ketib, bir necha asrdan beri ajdodlarimiz tafakkurini boyitib, ma’naviy qadriyat sifatida bugungi kunda o‘z qiymatini yo‘qotmay kelmoqda. Ular ijtimoiy va oilaviy tarbiya birligi haqidagi masalani ijobiy hal qilishga uringanlar, buni hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi ham to‘la e’tirof etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022 yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan takomillashgan “Ilk qadam” o‘quv dasturi.
3. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. T.2009
4. Sodiqova.Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. T.: “Tafakkur sarchashmalari”, 2013.
5. Yakubova, Z. Z. (2023). NATIONAL VALUES OF PRESCHOOL CHILDREN BASICALLY FORMING EDUCATIONAL AND MORAL QUALITIES. *European International Journal of Pedagogics*, 3(01), 51-55.
6. Yakubova, Z. Z. (2023). MILLIY TARBIYA ASOSIDA BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDA OILA, MAXALLA VA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLAR HAMKORLIGI. *GOLDEN BRAIN*, 1(15), 141-147.
7. Muratova, M. (2022). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA OTA-ONALARNI TA’LIM TARBIYAVIY JARAYONDA FAOL ISHTIROKINI TA’MINLASHNING AMALIYOTDAGI HOLATI. *Science and innovation*, 1(B7), 1091-1096.
8. Muratova, M. O. R., & Dekhkambaeva, Z. (2022). Maktabgacha Ta'lim Muassasasida Bolalarning Hayot Faoliyati Xavfsizligi. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 13, 111-113.
9. Махмудова, Д. А. (2024). ВЛИЯНИЕ РАЗВИВАЮЩИХ ИГР НА ЛИПУЧКАХ НА РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. *GOLDEN BRAIN*, 2(1), 199-202.
10. Djamilova, N. N., Khodjimuratova, B. N., Khasanova, S. T., Nurmatova, I. T., & Kim, I. N. (2020). FEATURES OF ORGANIZING STEAM EDUCATION IN UZBEKISTAN. *Solid State Technology*, 63(1s), 1803-1808.
11. Ergasheva, B. (2022). TALABALARINING PEDAGOGIK MODERINIZATSIYA SHAROITIDA KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. *Science and innovation*, 1(B7), 401-405.
12. Barno, E. (2023). O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TALIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY TIZIMI. *Research Focus International Scientific Journal*, 2(3), 103-105.